

Yunusov Arman Fayzulla o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

muzeyshunoslik: muzey menejmenti

va madaniy turizm yo'nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muzeylar va ularning inson hayotidagi muhimiyatni va ularning o'ziga xos vazifalari haqida ma'lumot berildi. Tarixiy xazinani saqlash, madaniy va san'atij ijodlarni oshirish, turizm va ta'limni mustahkamlash, milliyatni oshirish tushunchalariga bag'ishlangan bu maqola, muzeylar sohasining inson hayotidagi o'rni va ularning faoliyatlarining ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tarix, jamiyat, madaniyat, muzey, san'at, turizm.

Muzeylar ajdodlardan meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina. Yillar davomida boyib, to'lib boraveradigan bu xazina faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmay, uzoq tarix sahifalaridan so'zlovchi bebaho kitob hamdir.

Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi. O'zbekistonda muzeylarni yangi tarixi 1992-yildan boshlandi va muzeylarga bo'lgan e'tibor yanada oshdi.

O'zbekiston 1993-yilda Xalqaro "ICOM"¹ tashkilotiga a'zo bo'lgach, soha bo'yicha jahondagi eng ilg'or tajribalarni o'rganib, o'ziga xos milliy an'analar festivaliga asos soldi. Yillar o'tgan sayin shaklan va mazmunan takomillashib, boyib borayotgan mazkur festivalning respublikamiz miqyosida o'zagcha bayramona ruhda o'tkazilishi muzeylar ijodiy faoliyatining yangi qirralari namoyon bo'layotganidan darak beradi. Aynan 18 may kuni yurtimizdagi barcha muzeylarning tomoshabinlarga bepul xizmat ko'rsatishi, maxsus ko'rgazmalar va teatrlashtirilgan tomoshalarning yuksak saviyada tashkil etilishi esa bayram shukuhini oshiribgina qolmay, yoshu keksa tomoshabinlarga bir olam zavqu-shavq hadya etishi bilan ham e'tirofga molikdir.

Prezidentimizning 2020-yil 26-may kuni e'lon qilingan "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi² qarorida belgilangan vazifalar biz uy-muzeylari xodimlarini ham qo'lni-qo'lga berib, ijodiy hamkorlik rishtalarini har tomonlama mustahkamlashga, ishga yangicha munosabatda bo'lib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda tashrif buyuruvchilarga namunali xizmat ko'rsatishning ta'sirchan usullarini keng qo'llashga undaydi. Toshkent shahar uy-muzeylari o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro hamkorlik sohada olib borilayotgan keng qamrovli ishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu

¹ ICOM - - Xalqaro muzeylar kengashi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.05.2020 yildagi PQ-4730-son

ijodiy rejalarini muhokama qilish, fikr almashish, sifatli va samarali taklif, tavsiyalardan unumli foydalanish, muxtasar aytganda, tomoshabinga muzey ashyolari haqida batafsil ma'lumot berish imkonini yaratadi. Muzeyga odamlar turli maqsadlarda tashrif buyurishadi. Masalan : tarixni bilish ,ekspozitsiyalarni rasmga tushirish , jamoat bilan birga bolish uchun , turli xil munozaralarga suhbatdosh bolish uchun , ma'lum bir asar taqdimotini ko'rish uchun borishadi. Muzeyga turli yosh vakillari kelishadi :yosh , qariyalar . Odamlarda muzey tushunchasini rivojlantirish uchun dastlab bolalardan boshlash kerak. Bolalar bu jamiyatning muhim bo'lagi hisoblanadi Chet el muzeylarining aksariyat tashrif buyuruvchilar bu albatta bolalardir. Masalan aeronavtika muzeyi dunyoda tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi . Bu muzeyga ham ko'pincha bolalar kelishgan. Bolalarda muzey tushunchasini rivojlantirish uchun dastlab, bog'chalardan boshlash kerak deb o'ylayman. Sababi bola bog'chada turli xil ma'lumotlarni miyyasiga singdiradi . Bog'chadan boshlash degani . bolalarga muzey tushunchasini turli xil o'yinlar orqali , interaktiv mashqlar , qiziqarli savollar tuzib , bolalarni rag'batlanirib turish kerak. . Bog'chada tartibli , o'zini intizomli tutgan bolalarni esa davlat muzeylarining bolalar bo'limiga ekskursiyaga olib borish kerak , shunda boshqa bolalar ham tartibli , intizomli bo'lishgs harakat qiladi. Bolalarda muzeyni qiziqtirish borasida AQSh ilgari ketti .

Muzeylarning ommaviy-g'oyaviy, ta'limiy ishi kommunikatsiyasining muhim elementini tashkil qilgan holda, kamolotga etgan, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga, uni g'oyaviy, ahloqiy, estetik tarbiyalashga, bilimdonligini, axborotlilikini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan.³ Muzey kommunikatsiyasining ekspozitsiya vistavka va boshqa ko'plab shakllaridan foydalangan holda muzeylar aholining turli ijtimoiy, kasbiy, turli yoshdagi kategoriyalariga ta'sir ko'rsatadi. Ommaviy ish doirasi muzey faoliyatining boshqa yo'nalishlari bilan yaqindan aloqadorlik asosida ko'rib chiqilmog'i lozim. Muzeylarning g'oyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy ishi, ilmiylik, hayot bilan aloqadorlik kabi printsiplarga tayanadi.

Muzeylar milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbiga va ongiga singdirishda, milliy o'zligimizni anglashda, ijtimoiy faollikni o'rgatishda, komil insonni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. Tarixiy profildagi muzeylarning tarbiyaviy potentsialini o'ziga xos xususiyatlari asosida xalqning ko'p qirrali tarixini aks ettiruvchi bevosita guvohliklar, asl yodgorliklardan foydalanish yotadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, muzeyshunoslikka berilgan yuksak e'tiborning samarasi o'laroq mazkur sohada quyidagi misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi:

- muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

- muzey ishini samarali yo'lga qo'yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg'arma tashkil etildi.

- mustaqillik yillarida O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo'yicha qator ko'rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi. Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan noyob yodgorliklarni

³ Mirzaaliyev.E. Baxriddinov O. Tarix-ma'naviyat ko'zgusi. -Namangan. 2006. -B.. 17-18.

asrab-avaylash, asrlar osha bizgacha yetib kelgan asori atiqalarni saqlash hamda kelajak avlodga bus butun yetkazishda madaniy muassasa bo'lgan muzeylarning o'rni va roli beqiyos. Birinchi navbatda o'zimizning xalqimizni va bolalarni yoshlikdan qiziqtirib, ularga tariximizni o'rgatib davom ettirsak mubolag'a bo'lmaydi. Muzeyga faqat tarixni bilish uchun emas, balki dam olish, madaniy hordiq uchun, hayotini yangilklar bilan boyitish uchun ham borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qachonki ichki turizm rivojlansa va ichki turizm uchun yaxshidan yaxshi sharoitlar qilinsa, ana undan keyin boshqa mamlakatlardan turistlarni jalb qila olamiz..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://yuz.uz/uz/news/muzeylar--tarix-tilsimoti-qadriyatlar-beshigi>
2. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/425/books/ui5rRzYqgaHdwB6CngKZ1EtZlUJi3Gp5t7iPkYdv.pdf>
3. <https://islomkarimov.uz/uz/article/muzeyshunoslik-rivojining-yangi-bosqichi>